

---

Yig'ilishda qishloq xo'jaligi sohasidagi dolzarb vazifalar muhokama qilindi. Qo'shtepa tumani hokimligida qishki agrotexnik tadbirlarning bajarilishi va qishloq xo'jaligida yangi mavsumga tayyorgarlik ko'rishning dolzarb vazifalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Tuman hokimi A.Abdullayev rahbarligida bo'lib o'tgan yig'ilishda tumandagi qishloq xo'jaligiga daxldor tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdilar.

Yig'ilishda agrar tarmoqda belgilangan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha tumanda olib borilayotgan ishlar va 2025 yil hosili uchun qishloq xo'jaligi sohasidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Shuningdek, tuman rahbari tomonidan qishki agrotexnik tadbirlarni uyushqoqlik bilan tashkil etish, amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan aniq hisobotlar yuritish, qisqa aytganda, dala-dehqonchilik yumushlarini izchillik bilan davom ettirish zarurligi ta'kidlanib, mas'ullarga tegishli topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

2025-01-15 10:00:23